N.V.Kuzminaning ta'kidlashicha, estetik tarbiyaning maqsadi san'at vositalari orqali o'z fikri va sezgisini chuqur anglash, yorqin fikrlash va chuqur his qilishda bolalarga yordam berishdan iborat. Talabalar oliy dargohdagi o'qish davrida faqatgina ta'lim emas, balki maxsus tarbiya ham olishlari kerak. Ular o'zlarida uyushqoqlik, tartiblilik, mustaqillik va vazminlikni tarbiyalashi, umuman hamma munosabatlarda madaniyatli bo'lishni: xushmuomala, ozoda, adabiyot, san'at va musiqa bilan tanish bo'lishlari kerak. Shaxsni faol ijodkorlikka yo'naltirish, hayotdagi voqea va hodisalarni baholay bilish, kishida hissiylikni shakllantirish, yoshlarda sog'lom dunyoqarashni qaror toptirishda estetik tarbiyaning ahamiyati beqiyosdir. Estetik ma'lumotli bo'lmasdan turib, barkamol shaxs haqida gapirish ham mumkin emas. Shuning uchun ham badiiy-estetik tarbiya hamma maktablarda majburiydir.

Estetik tarbiya kishida san'at va hayotdagi go'zallik, olijanoblikni tushunish va yaratilishni, to'g'ri anglash va idrok qilish qobiliyatini shakllantirishni taqozo qiladi. Bu – "shaxs shakllanishida bir maqsadni ko'zlovchi va nazorat qilib turiluvchi estetik faoliyatga va borliqqa estetik munosabatda bo'lishni o'rgatishga qaratilgan pedagogik jarayondir". [3]

Estetik tarbiyaning mazmuni – deydi B.T.Lixachev, bolada borliqqa va san'atga estetik munosabatda bo'lishni, badiiy ijodiyot qobiliyatini oshirish, go'zallik qonuniyatlari asosida mahorat va ko'nikmalarni shakllantirish va o'stirishdir. [4]

Estetik tarbiyaning eng kuchli vositalaridan biri – musiqadir. Musiqa san'ati faqatgina katta ruhiy ta'sir kuchiga ega bo'lmasdan, shaxsning axloqiy shakllanishida ham katta ta'sir ko'rsatadi. Taniqli pedagog olimlardan O.A.Apraksina, B.V.Asafev, N.L.Gronzenskaya, D.B.Kabalevskiy, B.T.Lixachev, K.Mamirov, X.Nurmatov, V.A.Shatskaya, R.G'.Qodirov, Q.B.Panjiyev, F.N.Xalilovlar musiqa pedagogikasi muammolarini yechishga katta hissa qo'shdilar. Ularning ilmiy ishlarida maktab o'quvchilarining musiqiy-estetik tarbiyasi muammolari va musiqa o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar keng tadqiq qilingan. Hozirgi vaqtda bolalar estetik tarbiyasining metodologiyasiga, uning pedagogik-psixologik va usuliyatga doir masalalarini ishlab chiqishga katta e'tibor berilmoqda.

Shundan kelib chiqib, bugungi musiqa o'qituvchilari qanday talablarga javob berishlari kerak? – degan savol tug'ilishi o'rinli. Taniqli pedagoglar V.N.Shatskaya va M.A.Rumerlar bo'lajak musiqa o'qituvchilarda umumpedagogik bilim va umummusiqiy tayyorgarlik yuqori darajada bo'lishi kerak deyдилar. B.V.Asafevning ta'kidlashicha, maktabda musiqa tarbiyasini olib boruvchi pedagog – bir vaqtning o'zida instruktor, ruhshunos va rahbardir.

O'zbekiston pedagog olimlari tomonidan umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida o'quvchi-yoshlarni musiqiy va estetik tarbiyalash muammolarini hal etishga yo'naltirilgan ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bunday tadqiqotlardan: "O'zbek maktablari o'quvchilarining musiqa darslarida estetik tarbiyalash muammolari" (X.Nurmatov), "Musiqa ta'limi jarayonida kichik maktab o'quvchilarida axloqiy hisni tarbiyalash" (K.Mamirov), "O'zbekiston maktablarining o'quvchilarida ko'povozlilik qo'shiq aytish malakalarini shakllantirish" (R.Qodirov), "Musiqa san'ati vositasi orqali o'smirlarni g'oyaviy-axloqiy tarbiyalash" (D.M.Kamolova), "Didaktik o'yinlar vositasida olti yoshlik birinchi sinf o'quvchilarini musiqiy-estetik tarbiyalash" (Z.R.Raximova), "Xalq musiqasi yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalash vositasi" (A.Sh.Hasanov), "Bayanda ijro etish vositasida yosh o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasi jarayonini faollashtirish" (F.N.Xalilov), "Musiqa vositasida o'quvchi shaxsida fuqarolik sifatlarini shakllantirish" (F.N.Rupinskaya), "Musiqa vositasida IV-VII sinf o'quvchilar shaxsining axloqiy sifatlarini shakllantirish" (I.R.Razzoqov), "Maktab musiqa — xor faoliyatida o'spirinlarning estetik didlarini shakllantirish" (O.A.Vasilchenko), "Xalq musiqasi vositasida yoshlarni axloqiy tarbiyalash" (B.Azimov), "Musiqa vositasida o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik va baynalmilallik ruhida tarbiyalash" (Sh.Jonaydarov) va hokazolar diqqatga sazovordir. Ular o'z tadqiqot ishlarida maktabdagi musiqiy ta'lim va tarbiyaning mazmuni va uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari, uning samarali shakl, vosita va metodlarini nazariy va amaliy-metodik jihatdan asoslab berishgan.

Xuddi shuningdek, talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalash vositasi, ularni musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash mavzusida ham bir necha tadqiqot ishlari olib borilgan. Bunday tadqiqotlardan: "O'quvchilarni musiqa o'qituvchisi mutaxassisligiga yo'naltirishda maktab va pedagogika institutining hamkorligi" (S.M.Dadajonov), "Talabalarni musiqiy-estetik tarbiyalash bo'lajak o'qituvchining ijtimoiy faolligini shakllantirish omili" (A.S.Suxachev), "Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash" (R.N. Ergashev), "Student yoshlarni o'zbek musiqiy-folklor qo'shiqlari vositasida estetik tarbiyalash" (M.B.Qosimova), "Darsdan tashqari faoliyat jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kasbiy mas'uliyatni tarbiyalash" (V.A.Xalilov) "O'zbek xalq qo'shiqchiligi vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish" (Q.B.Panjiyev) va boshqalar talabalarining musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishning bir qancha qirralarini asoslab berishgan.

Muhokama. Ko'p yillik kuzatishlar natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, umumiy o'rta maktabni tugatgan bir qism yoshlarda badiiy did kam rivojlangan, ruhiy ehtiyoj esa yuzaki musiqa bilan chegaralangan.

Hozirgi kunda nota nomini bilib va uni nota yo'liga to'g'ri yozolmaydigan, biror bir musiqa asarining va muallifining nomini eslolmaydigan, o'rganilgan qo'shiqni aytolmaydigan, musiqani sevmaydigan va undan zavq ololmaydigan o'quvchilarni ko'plab uchratish mumkin. Bu holatning bosh sababi o'qituvchilar tomonidan o'quvchilar estetik ehtiyojlarini to'g'ri baholay bilmaslikdir.

Bolalarni yoshlikdan katta va jiddiy musiqaga olib kirishni, "go'zallik ezgulik uyg'otadi" tamoyiliga asoslanib o'quvchi shaxsini shakllantirishni, shu yo'l bilan ularga samarali ta'sir qilishni, o'quvchilarni musiqani katta san'atdek tushunishga, eshitishga va sevishtga o'rgatishni, musiqa san'atini bilishga jalb qilish va unga qiziqish uyg'otishni ko'zda tutadi. "Musiqa" dasturi

orqali tizimli ravishda olib boriladigan mashg'ulotlarning maqsadi bolalarni musiqaviy bilim bilan qurollantirish, ularda bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, badiiy did va qiziqishlarni rivojlantirishni kuchaytirmoqdir. Bosh vazifa esa, o'quvchilarni katta musiqa san'ati dunyosiga olib kirish, uning barcha boy shakl va janrlarini tushunish va sevishtga o'rgatish, musiqa madaniyati ular ruhiy madaniyatining bir qismi sifatida tarbiyalashdir.

Musiqiy-estetik tarbiya oldida turgan vazifalarni yechishda musiqa o'qituvchisi katta rol o'ynaydi. Biz ko'rib chiqqan ko'p tadqiqotlarda musiqa ta'limi bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini o'qitishning turli-tuman tomonlari o'z aksini topganligining guvohi bo'ldik. Musiqa mutaxassisi bo'lgan o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash muammolari keng miqyosda o'rganildi. Unga atab ko'p sonli o'quv qo'llanmalari, to'plamlar va metodik tavsiyanomalar tayyorlandi. Bizni esa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirishga yordam bera oladigan tadqiqot ishlari va adabiyotlar qiziqtiradi.

Biz o'z tadqiqotimiz jarayonida tanishib chiqqan ilmiy ishlarda bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish muammolarining ayrim tomonlari tadqiq qilingan, xolos.

Maktablarni malakali musiqa o'qituvchilari bilan ta'minlashdagi imkoniyat va talablar nomutanosibligi hozirga qadar o'z yechimini topganicha yo'q. Maktablardagi ahvol bu muammoni yanada kuchaytiradi. Hozirgi kunga kelib maktablardagi "Musiqa" dasturlari mazmunining takomillashib, milliydashib borishi yetuk malakali mutaxassis o'qituvchilarni talab qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida bo'lajak musiqa o'qituvchilaridan musiqa bilan juda jiddiy va izchil ravishda uzoq shug'ullanishni talab qiladi. Bu holatga sabab bir tomondan o'quvchilar musiqiy-estetik tarbiyasidagi zamon talabi bilan hozirgi kundagi imkoniyat o'rtasidagi ziddiyatlarning hal qilinmaganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, musiqa o'qituvchilari bilan maktablarning yetarlicha ta'minlanmaganligidir. Ayniqsa, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini ta'lim borasidagi har qanday vazifani mustaqil ravishda hal qilishga tayyorlash zarurdir. Bolalarga umumlashgan hajmdagi musiqiy bilim va dars materialini nazariy tushuntirish, o'quvchining ruhiy hayoti va bilish jarayoni rivojlanishiga rahbarlik qilish bo'lajak musiqa o'qituvchisidan yuqori darajadagi umumiy madaniyat, o'qimishlilik, keng saviyalilik, jiddiy nazariy tayyorgarlik, katta usuliy mahorat, pedagogik odob, badiiy-estetik didga egalikni talab etadi. Hozirgi kunda bo'lajak musiqa o'qituvchilariga kasbiy, shuningdek, musiqiy-pedagogik muammolardan bo'lib turibdi. Ijtimoiy borliq va pedagogik voqelik bo'lajak musiqa o'qituvchilarini maktabdagi musiqa ishiga tayyorlashda, kasbni chuqur egallash uchun ichki hamda qo'shimcha imkoniyatlarni topish va ularni harakatga keltirishni talab qiladi.

O'zbekistonda bo'layotgan jadal o'zgarishlar ta'lim-tarbiya sohasiga ham o'zining ta'sirini o'tkazib, bo'lajak musiqa o'qituvchisidan "Musiqa" darslarida milliy musiqa san'atimizdan foydalangan holda bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdek sharaflil vazifani amalga oshirishga tayyor bo'lishlarini talab qilmoqda. Buning uchun oliygohda va mustaqil ta'lim olishda milliy musiqa san'atimizga qiziqishi va ijobiy munosabat uyg'ota olishning shakl va metodlarini egallashi lozimdir.

Bugungi "Musiqa madaniyati" dasturida o'qituvchi faoliyatining o'rni, uning oldida turgan vazifalar, maktab musiqa o'qituvchisiga qo'yiladigan malakaviy talablar o'z ifodasini topgan.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi pedagogik va musiqiy tomondan a'lo darajada tayyorlangan bo'lishi, yaxshi musiqachi va yomon pedagogdan ko'ra, yaxshi pedagog va o'rtacha musiqachi afzaldir. Chunki, umumta'lim maktabidagi musiqiy tarbiya – bu eng avvalo pedagogika, xususiyl tomondan – musiqiy, biroq aniq yo'nalishdagi, mantiqli uzviy, uslubiyotga ega pedagogikadir.

L.G.Archajnikova o'zining "Professiya – uchitel muzyki" ("Musiqa o'qituvchisi kasbi") kitobida musiqa o'qituvchisiga qo'yilgan asosiy talablarni ko'rib chiqib, musiqiy-pedagogik faoliyatdagi qator yo'nalishlarni ajratib ko'rsatadi, bular orasida: tashkilotchilik, bilimdonlik, hissiyot va izlanuvchanlik alohida o'rin tutadi. Kitob muallifi musiqa o'qituvchisining musiqiy-nazariy, xor-dirijyorlik, ijrochilik tayyorgarligiga qo'yilgan talablarni tahlil etib, pedagogik faoliyatining xususiyati va uning umumpedagogik ishdagi rolini alohida ko'rsatib, bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirishga alohida e'tibor beradi.[2]

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'quv jarayonidagi faoliyatlarini umumta'lim maktablari "Musiqa madaniyati" dasturi mazmuni asosida variativ shaklda tashkil qilish yaxshi samara beradi. Bu eng qulay va samarali yo'l hisoblanadi. Talabalar musiqiy madaniyatining past darajada ekanligini va oliy o'quv yurti musiqa dasturi asosida ularni musiqiy-pedagogik ishga tayyorlashning murakkabligini hisobga olgan holda, musiqa mashg'ulotlarini bir butun fan sifatida o'qitish maqsadga muvofiq.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi shaxsini andazalash o'quvchilarni musiqiy-estetik tarbiyalash vazifalariga muvofiq tuzildi, ya'ni: kichik yoshdagi bolalarda san'atga bo'lgan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish; musiqiy-estetik idrok etish ko'nikmasini rivojlantirish; musiqa bilan izchil tanisha borish asosida musiqiy tasavvur, tushuncha, didni shakllantirish; musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish; bilim va ko'nikmalarni tarkib toptirish va boshqalar.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisi umumiy vazifalar bilan bir qatorda «Musiqa madaniyati» darslari o'quv-tarbiyaviy jarayoni va sinfdan tashqari musiqiy-tarbiya ishiga tayyorgarlik ko'rishlari zarur. Bular orasida ish dasturining asosiy mazmunini belgilovchi zarur vazifalarni alohida ko'rsatish mumkin. Bular: musiqa darslarini ijodiy tashkil qilish; bolalarda nozik his-tuyg'ularni tarbiyalash; mashg'ulotlar mobaynida o'quvchilarning hayotiy tajribalarini hisobga olish, musiqa mashg'uloti jarayonida ularning idrok etish va aqliy qobiliyatlaridan to'liq foydalanish; ta'lim jarayonidagi son va sifat o'zgarishlari (bilim, ko'nikma va malakalarning) chuqurlashuvi, ularni yangi, yuqoriroq darajada qo'llash; milliy musiqa madaniyatiga shaxsiy munosabatni tarbiyalash.

Bu muhim vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchidan nafaqat kasbiy bilimdonlik, balki pedagogik ko'nikmalar ham talab qilinadi. U o'quvchilarni musiqani sevrishga, unga hissiy munosabat bildirishga, u haqda fikr yuritishga o'rgatishi; milliy musiqa san'atiga havas va qiziqishni shakllantirish, musiqa vositalari orqali bola shaxsining ijodiy imkoniyatlarini, o'qituvchining savollariga javob berishga tayyorgarligini, o'zining bilim va javoblariga ishonchini rivojlantirishi zarur. Bunday vazifalarni yechish uchun oliy o'quv yurtida shakllangan umumpedagogik, musiqiy-pedagogik va maxsus ko'nikmalar kerak bo'ladi.

Natijalar. Umumiy kasbiy-pedagogik ko'nikmalar haqidagi masalani o'rganish bir-butun tuzilmadan har qanday o'qituvchiga zarur bo'lgan umumpedagogik ko'nikmalarni, musiqiy-pedagogik va maxsus ko'nikmalarni ajratib olishga imkon beradi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisi musiqiy-pedagogik faoliyati tavsifnomasida yalpi musiqiy-pedagogik va maxsus bilim, ko'nikma va malakalar ko'rib chiqiladi.

Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasb tayyorgarligini shakllantirish jarayonida musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorlashning oxirgi natijasi maktabda olib boriladigan musiqiy-tarbiyaviy ishlarga tayyorligiga qarab aniqlanadi. Oliy ta'limda o'qishni boshlash vaqtidagi holat dastlabki bosqich bo'lib hisoblanadi. Musiqiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonidagi natija oxirgi holatning dastlabki holatga nisbati orqali ko'rinadi va pedagogik jarayonning rivojlanish dinamikasi bilan tavsiflanadi.

Aniq pedagogik harakat va operatsiyalarni amalga oshirish uchun bitiruvchi talabada bo'lajak musiqa o'qituvchisining tavsifnomasi talab qiladigan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lmog'i zarur.

Shunday qilib, o'qituvchi pedagogik faoliyatini tizimli tahlil qilish, zamonaviy musiqa o'qituvchisi andazasini ishlab chiqish sohasidagi ilmiy ishlarni o'rganib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Musiqa o'qituvchisining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik tarkibi: o'z kasbiga munosabat, kasbiy bilimdonlik, hissiy-emotsional, axborot berish, loyihalash, tashkilotchilik, muloqot qilish, tadqiqotchilik, tahlil qilish va umumlashtirish kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

1. *O'z kasbiga bo'lgan munosabati.* Ushbu komponent bo'lajak musiqa o'qituvchisining o'z kasbiga va musiqa san'atiga mehr-muhabbati, unga bo'lgan qiziqishi va ma'naviy ehtiyoji, ijobiy pedagogik motivatsiyasida namoyon bo'ladi. O'z navbatida o'qituvchilik kasbiga ijobiy munosabatda bo'lish uning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarining takomillashuviga bevosita yordam beradi.

2. *Kasbiy bilimdonlik* komponenti bo'lajak musiqa o'qituvchisi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning musiqiy-pedagogik faoliyatidagi ijodkorlik darajasini va mustaqil bilim olishga bo'lgan ehtiyojini belgilaydi. Bu – ma'lum tizimda bilim olish va musiqiy-pedagogik vazifalarni ijodiy hal qilishdir. Buni biz o'quv-bilish faoliyatida ko'radigan bo'lsak, u nafaqat umumiy va maxsus bilimlarga ega bo'lishi, balki bu bilimlarni hisobga olgan holda faoliyatning o'ziga xos usullarini egallashi ham demakdir.

Faoliyatning o'ziga xos usullariga: jo'r ovozda ijro etish va kuylash, nota o'qish, transpozitsiya qilish, musiqa asbobida chalish va hokazo ijrochilikning boshqa turlari ham kiradi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar bir-biri bilan o'zaro mustahkam aloqada bo'lib, bir butun tizimni tashkil qiladi.

3. *Hissiylik-emotsional komponent.* Bo'lajak o'qituvchining musiqa san'atiga emotsional munosabatda bo'lishi muhim kasbiy ahamiyatga ega. Musiqadagi go'zalliklarni his qilish va o'quvchilarda uni his etish malakasini shakllantirish musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalardan biridir. Bo'lajak o'qituvchida hissiy-emotsional komponentni shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u musiqa san'ati bilan jiddiy shug'ullanishni talab etadi. Yangrayotgan musiqani eshitish orqali uni tahlil qilishni o'rganish zarur. Musiqa asarini tahlil etish jarayonida yangrayotgan kuy qanday voqelikni ifodalashini aniqlab olish va bu holatni o'zida his etishi zarur.

4. *Axborot berish komponenti.* Bo'lajak musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismlaridan biri o'quvchilarga axborot berish komponentidir. Ushbu pedagogik komponent o'qituvchidan «Musiqa madaniyati» dasturi materiallarini chuqur va erkin egallagan bo'lishi, uni o'qitishning zamonaviy shakl, vosita va metodlari, didaktik tamoyillar va yo'l-yo'riqlari, shuningdek, axborotning boshqa manbalariga suyanishni talab etadi. O'qituvchi muayyan sinfing musiqiy tayyorgarlik darajasini aniq bilishi bu

komponentning asosiy mazmunini tashkil qiladi. O'qituvchi dars jarayonida bolalarga bilim berish bilan bir qatorda, ularni nazorat qilish va natijalarni umumlashtirib borishi zarur.

5. *Loyihalash komponenti* o'qituvchidan musiqiy o'quv-tarbiyaviy ishlarni loyihalashtirishda va rejalashtirishda umumpedagogik va maxsus bilim va ko'nikmalar zarur bo'lishini taqozo qiladi. Darsni loyihalashtirishdan avval, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Darsning loyihasini tuzish va unga kiritilgan materiallarni, ayniqsa, musiqa asarining tarbiyadagi mohiyatini hisobga olish muhimdir. Darsni loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi dars o'tishning eng samarali usul va yo'llarining qaysi birlaridan foydalanishini aniqlab, darsning bosh vazifasini ajratib olib, qo'shimcha vazifalarni aniqlab ularni bajarish uchun o'qituvchi va o'quvchilarning harakat tuzilishlarini rejalashtiradi.

6. *Tashkilotchilik komponenti*. Tashkilotchilik komponenti ham boshqa komponentlar singari o'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida eng zarur pedagogik ko'nikmalardan biridir. Tashkilotchilik komponenti har bir musiqiy ta'lim-tarbiya jarayonini rejalashtirishdan boshlanadi. O'qituvchi maktabdagi har qanday musiqiy-tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishga kirishishdan avval bolalarning yosh xususiyatlarini albatta hisobga olishi kerak bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi «Musiqa madaniyati» dasturining mazmuni, unga qo'yiladigan talablar va uni amalga oshirishning eng samarali uslublarini tanlashi lozim, so'ng esa uni tashkil qilishga kirishadi. Dars, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari musiqa mashg'ulotlarini o'tkazishda bir butun sinf jamoasini tashkil qilish muhimdir.

7. *Muloqot qilish komponenti*. O'qituvchining musiqiy-pedagogik faoliyatida o'quvchilar, ularning ota-onalari va o'z kasbdoshlari bilan muloqot qilish komponenti muhim o'rin tutadi. Muloqot qilish komponenti – bu, butun sinf jamoasi va sinfdagi har bir o'quvchi bilan o'qituvchining munosabatlari majmuidir. Bu komponentni namoyon etish uchun o'qituvchida keng dunyoqarash va inson ruhiyatidagi o'zgarishlarni chiqur anglashga zarur bo'lgan barcha xususiyatlar bo'lishi shart hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan do'stona munosabatda bo'lishi kerak. Ayniqsa, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini qozonish zarur bo'ladi. U o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini chuqur tushunishi kerak.

8. *Tadqiqotchilik komponenti*. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatining barcha komponentlari o'zaro yaqin aloqada bo'lib, ularning har biri ijodiy izlanish va tadqiqotchilik bilan shug'ullanishni talab etadi. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyati tarkibini tashkil etuvchi barcha komponentlar ilmiy-nazariy asosga ega bo'lmog'i zarur. Har qanday pedagogik jarayonni amalga oshirishda o'qituvchi o'zi orttirgan va boshqa ilg'or o'qituvchilarning tajribalaridan samarali foydalanadi. O'quvchilar bilan musiqiy faoliyatning har xil ko'rinishlarini tashkil qilishda ularning musiqiy bilim darajalarini hisobga olish kerak. Ayniqsa, o'z bilimini oshirish uchun musiqa fani sohasida bo'layotgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan muntazam tanishib borish va fanning zamonaviy yutuqlaridan imkoni boricha foydalanish, musiqa darsining ilmiy tashkil qilinishiga asos bo'ladi.

9. *Tahliliy-umumlashtiruvchi komponenti*. Musiqa o'qituvchisi kasbiy-pedagogik faoliyatining ushbu komponenti maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan mashg'ulotlarga ham tegishlidir. Bu komponent bo'lajak musiqa o'qituvchisining o'z kasbiy-pedagogik faoliyatini chuqur tahlil qilishini, undan kerakli xulosalar chiqarib, keyingi faoliyatini tashkil etishida asosiy shart hisoblanadi. O'qituvchi bu komponentga suyangan holda o'z faoliyatiga tanqidiy baho beradi. O'z faoliyati jarayonida erishgan yutuqlari va kelajakda mo'ljallangan ishlarni solishtirish asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonni natijalarini tahlil qiladi, o'z faoliyatini

kuzatadi, bu haqda fikr yuritadi, o'z ishi va o'quv-tarbiya jarayonini baholaydi. Buning uchun o'qituvchi maktab «Musika madaniyati» dasturi, uni o'qitish usuliyati, musiqa ta'lim-tarbiyasi mazmuni, maqsadi, vazifalari, shakl va usullarini juda chuqur tushunishi zarur bo'ladi. Musika darsini o'tish jarayonida qo'lga kiritgan shaxsiy tajribasini anglashi va to'plashi, olingan natijalarni ilmiy tomondan asoslashi kerak.

Xulosa. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorgarligini ta'minlash bo'yicha bir necha ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, uni bugungi kun talablari darajasida takomillashtirish davr talabidir.

1. Muammoga tegishli ilmiy-tadqiqotlar, adabiyotlar va bo'lajak musiqa o'qituvchilari ish mazmunini tahlil qilish ularning musiqiy-pedagogik faoliyati komponentlarini aniqlash imkonini berdi.

2. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarligi: o'z kasbiga munosabat, bilimdonlik, hissiy-emotsional, axborot berish, loyihalash, tashkilotchilik, muloqot qilish, tadqiqotchilik va tahliliy-umumlashtiruvchi komponentlardan iborat.

3. Umumta'lim maktabi «Musika» dasturi mazmunidan kelib chiqib, bo'lajak musiqa o'qituvchisining musiqiy-pedagogik ishga tayyorgarligini amalga oshirishda milliy musiqa san'atidan ta'lim va tarbiya jarayonida muhim vosita sifatida foydalanilsa, uning samaradorligi yanada oshadi.

4. Ta'lim jarayonida talabalarni musiqiy-pedagogik ishga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, musiqiy fanlarning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yish, bir vaqtning o'zida faoliyatning bir necha turidan foydalanish asoslarini yaratishga xizmat qiladi.

5. Bo'lajak musiqa o'qituvchisini musiqa tarbiyasi ishiga tayyorlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish uni ketma-ket, uzviy yo'lga qo'yishni ta'minlaydi.

6. Ta'lim jarayoniga milliy musiqa san'ati asarlarini kengroq olib kirish bilan talabalarda musiqiy-pedagogik faoliyatiga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirishga erishish mumkin.

7. Talabalarni musiqiy-pedagogik faoliyatiga tayyorlashda milliy musiqa asarlari, shuningdek maktab "Musika" dasturi materiallaridan foydalanish, ular faoliyatini maktab musiqa darsidek tashkil qilish bilan bir vaqtning o'zida ruhiy, nazariy va amaliy tayyorlash amalga oshiriladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-112-son qarori.
2. Арчажникова Л.Г. Профессия – учитель музыки. Книга для учителя. М.: Просвещение. 1984. -111с.
3. Кузмина Н.В. Способности одаренность, талант учителя. /В помощь лектору. Л.: 1985. -32с.
4. Лихачев Б.Т. Общие проблемы воспитания школьников. -М.: Просвещение. 1979. - 168с.
5. Сластенин В.А., Мищенко А.И. Профессионально-педагогическая подготовка современного учителя. –М.: Сов.педагогика. 1991.№10. 79-84с.
6. Raximov N.N. Musika o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T., "METHODIST NASHRIYOTI" 2023.
7. Raximov N.N. Bo'lajak musiqa o'qituvchisida kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish. Monografiya. Monografiya. Guliston., 2021.
8. Щербаков А.И. О подготовке студентов-будущих учителей к исследованию педагогических явлений и процессов. В сб. Психология труда и личности учителя. /Под ред. А.И.Щербакова./ Л.: 1977. 124-131с.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).